



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

## MA'RIFATLI JAMIYAT YARATISHDA O'ZBEK YOSHLARINING SALOHİYATI

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li<sup>1</sup> Yunusova Husniyabonu Abdurashid qizi<sup>2</sup>

Andijon Davlat Universiteti Tarix Fakulteti 3-Bosqich Talabasi<sup>1</sup>

Andijon Davlat Universiteti Tarix Fakulteti 3-Bosqich Talabasi<sup>2</sup>

### INFO:

Qabul qilindi: 28.02.2022  
Ko'rib chiqildi: 02.03.2022  
Chop etildi: 03.03.2022

**Kalit so'zlar:** *Mustaqillik, ma'naviyat, xalqchil, adolatparvar, yoshlar, tarbiya, kitob, mafkura*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning o'rnini, shuningdek, yoshlarimizni tarbiyalashda kitobning o'rnini haqida, mamlakatimizning birinchi va ikkinchi prezidentimizning yoshlarga e'tibori, yoshlar haqida aytgan so'zlari borasida, yosh avlodni ma'rifatli jamiyatni yaratishdagi o'rnini, salohiyati hamda ularning qo'shajak hissi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

### 1.KIRISH VA DOLZARBLIGI

Vaqt o'tib borar ekan dunyo ham, undagi davlatlar ham o'zgarib, yangilanib boradi. Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan bizning O'zbekistonimiz ham yildan yilga o'zgarib bormoqda. Agar O'zbekistonning uzoq o'tmishiga nazar solsak ham, yurtimiz uzoq qadimdan obod o'lkalardan bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi buyuk mustaqil O'zbekistonning yaqin o'tmishi, ya'ni mustaqillikka erishish davridagi tarixi haqida esa muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tgan.

“Zamonaviy O‘zbekistonning tarixi - bu mamlakatimizning haqiqiy mustaqillikka erishish yo‘lida Islom Abdug‘aniyevich Karimov rahnamoligida olib borilgan o‘ta murakkab va og‘ir kurashlar tarixidir” [1.4]

Darhaqiqat, O‘zbekiston yurti podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng, mustaqillik uchun doimo intilib yashagan. Nihoyat muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov davrida O‘zbekiston mustaqil davlatga aylandi va chorak asr davomida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Mana hozirgi davrga kelib ham yurtimiz yangi prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida tubdan o‘zgarishlar sari sobit qadam bilan odimlab bormoqda. Albatta, bu sobit qadamlar ila olg‘a borishimizda muhtaram prezidentimizning xalqchilligi, adolatparvarligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekistonning shakllanishi, unda ma‘rifatli jamiyat yaratilishi hamda bu jarayonlarda mamlakatimiz yoshlarining ishtiroki va ularning qo‘shajak hissasi beqiyosligi borasida ham yurtboshimizning o‘zi doimo ta‘kidlamoqda. Xususan, yurtboshimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida quyidagi so‘zlarni aytib o‘tgan.

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimizning qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.” [2]

Butun dunyo davlatlari boshliqlari oldida ishonch bilan gapirilgan bu gaplar, nechog‘lik mamlakatimizda yoshlarga ishonch qanday ekanini ko‘rsatib beradi.

## **2.METODLAR VA O‘RGANISH DARAJASI**

Yuksak ma‘naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularning ma‘naviy barkamolligini shakllantirish vazifasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Globallashuv jarayoni va uning salbiy oqibatlaridan biri bo‘lmish ommaviy madaniyatning yoshlar onggiga ta‘siri nuqtai nazaridan olib qaralganda, ma‘naviyati yuksak, aqlan barkamol va ma‘nan yetuk shaxslarni yetishtirish birmuncha mas‘uliyatli va jiddiy vazifadir. Yoshlarning ma‘naviyatini yuksaltirish uchun ular ongida ma‘naviyat tushunchasini chuqur singdirish, qolaversa, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta‘biri bilan aytganda “Ma‘naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak” ligini ya‘ni insonning o‘zligini, qadr-qimmatini anglamog‘i uchun qo‘ldan kelgan barcha chora-tadbirlarni ko‘rish lozim. Keling, dastlab so‘zimizni ma‘naviyat tushunchasiga berilgan izohlar bilan davom ettirsak, zero, ma‘naviyat tushunchasini tushunmay turib ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalashlik amrimahol.

Ma‘naviyat – nur, ma‘naviyatli shaxs - dilida haqiqat nuri aks etgan, o‘zligini anglagan, o‘zining borliqdagi o‘rni va vazifasini tushunib yetgan, haqiqat oldidagi o‘z maqomiga loyiq bo‘lish va burchini ijro etish ma‘suliyatini zimmasiga ola biladigan inson. Millat ma‘naviyati deganda,

o'z tarixiy shakllangan qiyofasiga ega, shu bilan birga mohiyatan umumbashariy qadriyatlarga aslo zid emas, malki muvofiqdir. Ma'naviyat Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, " - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir".[ 3. 21]

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sa'y-xarakatlari tufayli jamiyatning ma'naviy yuksalishi va o'quvchi yoshlarning ma'naviy kamoloti masalalari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bunday e'tibor hech bir mamlakatda yo'q. Darhaqiqat, ma'naviyat, uning taqdiri, bugungi kunda butun inson zotining asosiy muammosiga aylandi. Bugungi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bir paytda uning salbiy ta'siri har bir inson ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatishini aniq tasavvur etishimiz kerak. Inson esa avvalo o'quvchilik davridan boshlab shakllanadi. Shuning uchun biz ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida hatto bitta o'quvchini boy bersak ham, bu butun "mafkuraviy-ma'naviy-ma'rifiy" ishlarimiz tizimiga putur yetkazadi.

Ma'naviy barkamol shaxslarni voyaga yetkazishning muhim tomonlaridan bir shundaki, ma'naviy olami yetuk shaxs hech qachon yot g'oyalarga ergashmaydigan, har qanaqa vaziyatni to'g'ri tahlil qila olish va ularga nisbatan ongli ravishda to'g'ri fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan, o'zi uchun oqilona qarorlar qabul qila oladigan va eng asosiysi har qanday holatda ham vatan ravnaqi, yurt kelajagi va obodligi yo'lida kerak bo'lsa jonini fido qila oladigan darajada komil insonlar yetishtirib chiqarishdir. [4. 304]

Tabiiyki savol tug'uladi. Xo'sh, bunga qanday erishish mumkin?! Javob bitta: kitob orqali. Sizga javob judo oddiy va jo'n tuyulishi mumkin, lekin bizning madaniyatimiz, tariximiz, ajdodlarimizning ulkan meroslari aynan shu kitoblarga jo bo'lganku. Axir biz ularni o'qimay turib, ularni mazmun-mohiyatini, undagi purhikmat so'zlari, buyuk kashfiyotlarni qanday qilib anglab yetamiz.[5. 121]

### **3.TADQIQOT NATIJALARI**

XXI asrning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lgan yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasining tushib ketganligi ayanchli hol albatta. Buning asosiy sabablari ineternet tarmog'iga borib taqaladi. To'g'ri internet odamlar uchun ko'pdan ko'p imkoniyatlat ochgandir, lekin "tanganing boshqa tarafi" degandek yoshlarninig virtual ong tasiriga tushib qolayotganligi jiddiy muammodir. Taraqqiyotning bu yutug'i insonlarni, ayniqsa yoshlarni o'ziga shu darajada mahliyo qilib qo'yidiki, ular hatto hayotini internetsiz tasavvur ham qila olmay qolishdi. Ular o'zlariga kerak bo'lgan har qanday ma'lumotlarni internet tarmog'i orqali topish va ulardan har qaysi vaqtda, har qanday holatda foydalinishlarini hisobga olgan holda, ma`nan ham, aqlan ham virtual

ongga tobe bo'lib qolayotganligi achinarlidir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar o'rtasida kitobxonlikni oshirish maqsadida amalga oshirayotgan chora-tadbirlari tahsinga sazovordir. Chunki ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda, yuqorida aytib o'tganimizdek, kitobning o'rni beqiyosdir.

O'ylaymanki ta'lim – tarbiya sohasida faoliyat olib borayotgan barcha jonkuyarlar birlashsak, yurtboshimizga qanot bo'lsak, o'sib kelayotgan yoshlarimiz Vatanimiz mavqeyini, obrosini bundanda yuksaklarga ko'taradi va Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni mustahkam qilib barpo etadi.

#### **4.XULOSALAR**

Xulosa qilish o'rnida bir narsani ta'kidlab o'tmoqchiman, ma'rifatli jamiyatdagi yoshlarni o'rni deyilganda, o'n yillab ortga qaytmagan holda, yaqin kunlardagi voqeelikdan xulosa yasaymiz. 2021-yilning 26 – 30 – dekabr kunlari Polshaning Varshava shahrida o'tkazilgan shaxmatning rapid yo'nalishi bo'yicha jahon chempionatida o'n yetti yoshlik o'zbek o'g'loni Nodirbek Abdusattorov g'oliblikni qo'lga kiritib, tarixga kirdi. Butun jahonda O'zbekistonning bu yosh o'g'loni ko'rsatgan natijasi Yangi O'zbekistonimizda ma'rifatli jamiyatni yaratishda yoshlarning salohiyati nechog'lik yetukligini ko'rish mumkin. Albatta bu ilmning natijasi, mashaqqatli mehnat natijasi, tinchlikning natijasi, albatta bu ma'rifat yetukligining natijasi. O'zbek yoshlari mana shunday say harakatlari yetukligi bilan jahonda oldingi mavqeelarda turar ekan, ma'rifatli jamiyatni yaratishda ular beqiyos o'rin tutadi va bunday jamiyatni qura biladi.

Dunyo hamjamiyatida O'zbekiston shunday sobit qadamlar bilan odimlab borar ekan quyida yozilajak shior yurtimizning ertangi kunga ishonch ila yosh avlodlar bilan olg'a borishini ko'rsatadi.

“O'zbekiston kelajagi buyuk davlat”

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T.: “Ma'naviyat” 1996, 121-bet.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar to'plami 7-jild T., “O'zbekiston”, 1999, 304-bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat”, 2008, 16, 21-betlar
4. Sh.Mirziyoyev- Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Toshkent -"O'zbekiston", 2017 ,4-bet
5. Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi